

# RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR YORDAMIDA SINFDAN TASHQARI TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKILLASHTIRISH

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti

Pedagogika fakulteti Ta'lim- tarbiya

nazariyasi va metodikasi (Boshlang'ich

ta'lim) 2- bosqich magistranti

**Asadova Nozima Abdixalil qizi**

**E-mail:** [nozimaasadova74575@gmail.com](mailto:nozimaasadova74575@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar yordamida sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish masalalari ko'rib chiqilgan. Raqamli vositalar orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini ta'minlash imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, raqamli platformalar, onlayn viktorinalar, virtual ekskursiyalar va gamifikatsiya usullarining afzalliklari va ularni qo'llash yo'llari haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli texnologiyalar, tarbiyaviy ishlar, sinfdan tashqari faoliyat, onlayn ta'lim, gamifikatsiya, interaktiv vositalar, virtual ekskursiyalar, ta'lim innovatsiyalari, multimedia.

## ОРГАНИЗАЦИЯ УЧЕБНОЙ РАБОТЫ ВНЕ КЛАССА С ПОМОЩЬЮ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

**Абстрактный.** В данной статье рассматриваются вопросы организации воспитательной работы вне класса с помощью цифровых технологий. Выделены возможности повышения интереса учащихся, осмысленного проведения

свободного времени, обеспечения эффективности учебной работы с помощью цифровых инструментов. Он также предоставляет информацию о преимуществах и способах использования цифровых платформ, онлайн-викторин, виртуальных туров и геймификации.

**Ключевые слова:** цифровые технологии, образовательная деятельность, внеклассная деятельность, онлайн-образование, геймификация, интерактивные инструменты, виртуальные туры, образовательные инновации, мультимедиа.

## ORGANIZING EDUCATIONAL WORK OUTSIDE THE CLASSROOM WITH THE HELP OF DIGITAL TECHNOLOGIES

**Abstract.** In this article, the issues of organizing educational work outside the classroom with the help of digital technologies are considered. The possibilities of increasing students' interest, spending their free time meaningfully, and ensuring the effectiveness of educational work through digital tools are highlighted. It also provides information on the benefits and ways to use digital platforms, online quizzes, virtual tours, and gamification.

**Keywords:** digital technologies, educational activities, extracurricular activities, online education, gamification, interactive tools, virtual tours, educational innovations, multimedia.

### KIRISH

Shaxs sog‘lom va har tomonlama barkamol shakllanishi uchun unda o‘qishga intilish hissini takomillashtirish bilan cheklanib bo‘lmaydi. Ular ongida kasb - hunar va mehnat kunikmalarini hosil qilish, umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan yuksak ma’naviy-ahloqiy fazilatlarini tarbiyalash bilan o‘z vatani va halqiga nisbatan sadoqatni shakllantirish, atrof-muhitga nisbatan ongli munosabatda bo‘lish tuyg‘usini, huquqiy ongini tarbiyalash lozim. Bunda albatta sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning o‘rni beqiyos. Hozirgi

globallashuv davrida ta'lif va tarbiya sohalarini modernizatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli texnologiyalar o'quvchilarning faolligini oshirish, ularni qiziqtirish va tarbiyaviy ishlarni yangi bosqichga olib chiqish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalariga, jumladan, ta'lif va tarbiya jarayonlariga ham chuqur kirib bormoqda. Ta'lifning innovatsion shakllarini joriy etish orqali o'quvchilarni qiziqtirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish va tarbiyaviy ishlarda samaradorlikka erishish imkoniyati yaratilmoqda.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish mobaynida o'quvchilar tarmoqlarning eng boy axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatini qo'lga kiritadilar va teleko'priklar doirasida boshqa maktablar, shaharlar, viloyatlar, respublikalar va hattoki boshqa mamlakatlardan kelgan o'quvchilar bilan o'zлari qiziqqan loyihada birgalikda ishlash imkoniyatini qo'lga kiritishadi. Hamkorlik va hamkorlikning ushbu istiqbollari guruhlarda va individual ravishda ularning mustaqil bilim faoliyati uchun eng kuchli vosita hisoblanadi. Birgalikda ishlash talabalarni o'rganilayotgan muammo bo'yicha turli xil qarashlar bilan tanishishga, qo'shimcha ma'lumot izlashga, o'z natijalarini baholashga undaydi. Bundan tashqari sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda iqtidorli yoshlar va iste'dodli yoshlarni o'ziga xos psixologik jihatlarini va fazilatlarini hisobga olib turli to'garaklarga jalb etish "Respublika iste'dod markazi" xodimlari bilan hamkorlikda va ularning ilmiy amaliy tajribalaridan foydalangan holda iste'dodlarni aniqlashga katta yordam beradi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Raqamli texnologiyalardan foydalangan holatda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish o'quvchilar o'rtaida o'zaro hamkorlik va jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantirishga katta yordam ko'rsatadi. Bundan tashqari o'quvchilar bo'sh vaqtini foydali va samarali tashkil qilishga yordam beradi. Ta'lif va tarbiya jarayonlarini zamonaviy texnologiyalar orqali yanada qiziqarli qilish mumkin.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish usullari.

1. Onlayn platformalar va ijtimoiy tarmoqlar: O‘quvchilarning qiziqishlariga mos guruhlar yaratish (masalan, Telegram yoki Discord orqali fan, san’at, sportga oid guruhlar). Tarbiyaviy mavzularda onlayn forumlar va muhokamalar tashkil etish.
2. Interaktiv dasturlar va ilovalar: Kahoot, Quizizz kabi platformalar yordamida viktorinalar o‘tkazish. Virtual ekskursiyalarni tashkil etish (masalan, muzeylar yoki tarixiy joylarni onlayn ko‘rish).
3. Multimedia vositalaridan foydalanish: Tarbiyaviy mavzularni yorituvchi videolarni tahlil qilish. Mahalliy va global masalalarga oid loyihalarni taqdimot shaklida yaratish va taqdim etish.
4. Gamifikatsiya (o‘yinlashtirish): Tarbiyaviy jarayonlarni o‘yin shaklida tashkil etish. O‘quvchilarni onlayn kvestlar yoki ilmiy-ijodiy tanlovlarga jalb qilish.

Shodmonov N. “Ta’lim va tarbiyada innovatsion texnologiyalar” asarida raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni ta’lim tizimida qo‘llashning pedagogik asoslari keltirilgan. Shuningdek, raqamli platformalar yordamida o‘quvchilarning qiziqishini oshirish usullari haqida fikrlar bayon qilingan. [6]

Xudoyberdiyev T. “Raqamli texnologiyalar orqali yoshlarni tarbiyalash” asarida muallif raqamli vositalar yordamida yosh avlodni ma’naviy tarbiyalash bo‘yicha tavsiyalarni ilgari suradi. [7]

UNESCO va UNICEF qo‘shma hisobotlari “21-asr ta’limida raqamli texnologiyalar”. Hisobotda rivojlanayotgan davlatlarda raqamli texnologiyalarning tarbiyaviy ishlarga ta’siri va undan samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar bayon etilgan. [8]

Jenkins H. “Digital Literacy and Social Engagement”. Ushbu ishda raqamli savodxonlik orqali o‘quvchilarni ijtimoiy faoliyatga jalb etishning usullari va afzallikkleri yoritilgan. [10]

## Metodologiyaning yangiliklari

Raqamli muhitni joriy etish modeli: Ta'limda multimedia va interaktiv vositalardan foydalanishni bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'llari taklif qilindi.

Blended learning (aralash o'qitish): An'anaviy tarbiyaviy ishlarni raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish tajribasi sinovdan o'tkazildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga, ular bilan pedagogik hamkorlikda milliy va umumbashariy qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan. Ushbu jarayon ta'lim-tarbiya tizimining ajralmas qismi hisoblanadi va quyidagi maqsadlarga qaratiladi:

- a) O'quvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish.
- b) Ularni jamoada ishlashga o'rgatish va ijtimoiy faolligini oshirish.
- c) Har bir o'quvchining qiziqish va iste'dodini rivojlantirish.

Raqamli texnologiyalar bu jarayonda nafaqat pedagoglar ishini yengillashtiradi, balki uni yanada samarali va qiziqarli qilish imkonini beradi

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish usullari.

1. Onlayn viktorinalar va tanlovlari: Kahoot, Quizizz kabi platformalar orqali turli mavzularda viktorinalar o'tkazish o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini oshiradi.
2. Multimedia vositalari: Tarbiyaviy videolarni tomosha qilish va muhokama qilish o'quvchilarda ma'naviy qadriyatlarni shakllantiradi.
3. Virtual ekskursiyalar: Muzeylar va tarixiy joylarga onlayn tashriflar o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi.

Raqamli texnologiyalar tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

1. Qiziqishni oshirish: Interaktiv o'yinlar, video va animatsiyalar yordamida o'quvchilar tarbiyaviy tadbirlarda faol ishtirok etadi.
2. Masofadan ishslash imkoniyati: Internet orqali o'quvchilar bilan turli mavzularda suhbatlar va muhokamalar o'tkazish mumkin.
3. O'quvchilar qamrovini kengaytirish: Raqamli platformalar orqali katta miqdordagi o'quvchilarni jalg etish oson.
4. Gamifikatsiya: O'yin shaklida tashkil etilgan ta'limiy tadbirlar o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi.

Tarbiyaviy jarayonlarni qiziqarli qilish uchun o'yinlashtirish usullaridan foydalanish mumkin:

Onlayn kvestlar: O'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirish uchun turli mavzularda onlayn kvestlar.

Mobil o'yinlar: Mathletics, Duolingo kabi o'quv dasturlar.

Raqamli ta'lim vositalari o'quvchilar bilan interaktiv muloqotni kuchaytiradi.

Misol uchun: Onlayn viktorinalar va tanlovlardan: Kahoot, Quizizz, Google Forms yordamida interaktiv viktorinalar o'tkazish mumkin.

Virtual ekskursiyalar: Google Arts & Culture, National Geographic platformalari orqali muzeylar, tarixiy joylarga virtual tashrifni tashkil qilish.

## **MUHOKAMA VA XULOSA**

Raqamlari texnologiyalarning tarbiyaviy ishlar uchun ahamiyati.

1. Motivatsiyani oshirish: Interaktiv taqdimotlar, o'yin shaklidagi ta'limiy dasturlar, onlayn musobaqalar va viktorinalar o'quvchilarning qiziqishini oshiradi.

2. Ko‘lamni kengaytirish: Internet platformalari orqali xalqaro va milliy darajada o‘quvchilar bilan aloqa o‘rnatish, madaniy tadbirlar va ilmiy loyihalarda ishtirok etish imkonini beradi.

3. Individual yondashuv: Raqamli texnologiyalar yordamida har bir o‘quvchining qiziqishi va ehtiyojlariga mos dasturlarni tuzish mumkin.

Raqamli texnologiyalar tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda o‘qituvchi va o‘quvchilarga yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Ular yordamida nafaqat o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalari rivojlanadi, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy jihatdan tarbiyalanganligi ham oshadi. Shu bois, ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Raqamli texnologiyalar yordamida sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni samarali va mazmunli tashkil qilish imkoniyatlari cheksiz. Texnologiyalarni ta’lim tizimiga integratsiya qilish orqali biz kelajak avlodni zamonaviy, bilimli va mas’uliyatli qilib tarbiyalaymiz. Raqamli texnologiyalar yordamida sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Shu sababdan ham, har bir pedagog raqamli texnologiyalardan foydalanishni o‘z ishiga tadbiq etishi zarur.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining PQ-3832-son qarori – “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 3-iyuldagি.
2. Axunov, A. “Zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalarning roli”. Toshkent: Sharq nashriyoti. 2021.
3. Polat, E. “Innovatsion pedagogika va axborot texnologiyalari”. Moskva. 2019.
4. Kuziev, N. “Raqamli ta’lim: imkoniyatlar va istiqbollar”. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti. 2021.
5. Axunov, A. “Zamonaviy texnologiyalar va ta’lim”. 2021.
6. Shodmonov N. ”Ta’lim va tarbiyada innovatsion texnologiyalar”. T. 2020.

7. Xudoyberdiyev T. "Raqamli texnologiyalar orqali yoshlarni tarbiyalash", T. 2019.
8. UNESCO. "Digital education in the 21st century". 2022.
9. UNESCO. "Digital learning and its impact on students development". 2020.
10. Jenkins H. "Digital Literacy and Social Engagement". 2018.